

TALABALARNI MUSIQIY PEDAGOGIK BILIMLARNI SHAKLLANISHIDA MUSIQA O‘QITISH METODIKASI PREDMETINING O‘RNI

Sunatilla Raimjonov,
A.Qodiriy nomidagi JDPI
Musiqqa ta’limi kafedrası
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan pedagog shaxsining shakllanishi, bilimlar, mahorat va ko‘nikmalar olish muammolarini yoritishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: Musiqiy ta’lim va tarbiya, pedagogika, psixologiya, kasbiy metodika, pedagogik mahorat, intonatsiya, musiqiy vositalar, musiqiy shakllar.

O‘qituvchini tayyorlash muammosi hozirgi zamonaviy pedagogik va psixologik fanning markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. O‘quv jarayoni, ta’lim uslublari va yoshlar tarbiyasini takomillashtirish ko‘p darajada o‘qituvchilarning tayyorgarlik va qayta tayyorgarlik darajasiga bog‘liq. Faqatgina o‘qituvchilarning tayyorgarlik va qayta tayyorgarlik darajasini doimiy ko‘tarish bilan maktabdagi ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish mumkin. O‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi mutaxassislarni tayyorlashning boshqa hamma turlari kabi pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan pedagog shaxsining shakllanishi, bilimlar, mahorat va ko‘nikmalar olishni o‘z ichiga oladi. M.A.Kudoykulov o‘qituvchi faoliyatining uch turga ajratadi: umumpedagogik, kasbiy-pedagogik, kasbiy-uslubiy.

O‘qituvchining kasbiy va pedagogik mahorati deganda ustuvor ijtimoiy-siyosiy, umumilliy, maxsus, psixologik-pedagogik va kasbiy-metodik bilim va ko‘nikmalar tizimi asosida olingan kasbiy faoliyatini amalga oshirish qobiliyati tushuniladi. Kasbiy-uslubiy mahoratlari-bu mavjud psixopedagogik va uslubiy bilimlar asosida fan o‘qituvchisining vazifalarini bajarish qobiliyati. Shu tariqa, pedagog tayyorgarlikning ikkita turiga ega bo‘ladi: kasbiy va malakaviy. Shuning uchun o‘qituvchini odilona tarzda kasbi bo‘yicha - pedagog, malakasi

bo'yicha o'qitayotgan faniga muvofiq (matematik, fizik, biolog va h.k.) fan o'qituvchisi deyishadi.

Bo'lajak pedagoglar tayyorgarligi barcha jihatlari, uning ijodiy bilimlari va amaliy mahoratlari tabiati va yo'nalganligidan, uning kasbiy moslashuvi va pedagogik mahorat asoslarini o'zlashtirish jarayoni qanchalik tez yakunlanishiga, natijada maktab ta'lim-tarbiya ishining samaradorligiga bog'liq bo'ladi.

A.I.Piskunov bir tomonli nuqtai nazar mavjudligiga e'tibor beradi, unga ko'ra "pedagogika ayrim metodikalarga xuddi parallel chiqadi: metodika fan o'qituvchisiga sinf va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar bilan talabani qurollantiradi, pedagogika esa o'quvchilar bilan maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni o'tkazish uchun kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalar bilan qurollantiradi" Eng asosiysi pedagogning bilimlari bo'lajak o'qituvchilar fikrlashining pedagogik yo'nalganligini shakllanishini ta'minlaydi, ularsiz haqiqatdan ham ijodiy va o'z navbatida maktabda maksimal samarali pedagogik faoliyat amalga oshirish mumkin emas.

Musiqqa va ashula o'qituvchisining pedagogik-psixologik tayyorgarligi butun o'quv-tarbiyaviy jarayonning kasbiy-pedagogik yo'nalganligini ta'minlaydi. Aynan oliy ta'lim muassasasida pedagogik-psixologik sikl fanlarini o'rganish jarayonida talabalarda pedagogikaning metodologik asoslari va toifalarini bilish, pedagogik ish bilan qiziqish, pedagogik-psixologik hushyorlik va kuzatuvchanlik, pedagogik odob, pedagogik tassavur, tashkilotchilik qobiliyatlari, kirishimlilik, talabchanlik, qat'iyat, sobitqadamlik, vazminlik shakllanadi.

Garchi musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish yagona jarayon sifatida amalga oshirilsa ham, ularning har birini alohida konkret musiqiy materialda shakllanish ketma-ketligini ko'rib chiqish zarur:

- Tovushni rivojlantirish ketma-ketligi-baland eshitish va uyg'unlik hissi. Asarlarni eshitish jarayonida registrlarning ifodali mohiyatini idrok qilish;

- ritm hissini rivojlantirish ketma-ketligi. Musiqadagi metrik bo‘laklar tekis oqishini o‘zlashtirish va takrorlash (musiqa ostida harakat jarayonida, eng sodda musiqa asboblarida chalish);

- musiqiy shakl hissining izchil rivojlanishi (butunlik hissi). (Bu yerda shaklning hissi deganda, elementar musiqiy tuzilmalar, ekspressivlik vositalari,

- qismlarning yaxlit tarkibga bo‘ysunishi va ularning ekspressiv mohiyati to‘g‘risida musiqiy-eshitish g‘oyalarini kompleks shakllantirish tushuniladi.)

Bolalar e‘tiborini qo‘shiqlardagi musiqiy til elementlarini rivojlantirishga; bunda eng sodda harakatlarni, ritmik, notali yozuvlarni bolalar musiqiy asboblarda o‘ynashni qo‘llashga urg‘u beriladi.

Bolalarda musiqa ostida harakatlar orqali jumlar, gaplarga musiqiy davrni bo‘lishni his qilishini kuchaytirish, bolalar musiqiy asboblaridagi o‘yinli qo‘shiqlar, p‘esalar bilan jo‘r qilish (masalan, ritmiy to‘xtash yoki ular boshlanishini ta’kidlash yordamida jumlalarining yakunlanganligini qayd qilish).

Bolalar va o‘qituvchi bilan birgalikda p‘esalarni eshitish uchun qo‘shiqlarning ifodali ijrosi ustidagi ish jarayonida hissiyotni kuchaytirish mumkin. Asarlar mavzusini yaxshiroq tushunishga, his qilishga va asosiy g‘oyani tushunishga ko‘maklashuvchi uslublar mavjud:

- musiqa rivojlanishning asosiy prinsiplari haqida tasavvurlar shakllanishi (takrorlanuvchanlik, variantivlik, zidlik) va ularning ma’noviy yuklanmasi, qo‘shiqlar ijrosi ustida ishlash jarayonida musiqiy ifodalilik vositalari va asarlarni tinglash haqida tasavvurlar shakllanishi;

- intonatsiya haqida tasavvurlar shakllanishi, uning kelgusidagi musiqiy idrok qilishida uning muhim roli haqida, intonatsiyaning ifodali va tasviriy mazmuni haqida, emotsional-semantik tarkib va uning timsoliy vositalari birligi sifatida intonatsiya haqida tasavvurlar shakllanishi;

- musiqiy fikrni bayon etish kabi mavzu haqida tasavvurlar shakllanishi (tanish qo‘shiq mavzusiga musiqiy asboblar uchun variatsiyalar bajarish misolida);

- musiqa vositalari yordamida hayotiy hodisalarni aks ettirish sifatida musiqiy obraz haqida tasavvurlar shakllanishi (masalan, yumorning – halq qo‘shiqlarida).

Musiqiy asar tuzilishining tiplari, ularning ma’no yuklanmasi haqida tasavvurlar shakllanishi:

a) bitta musiqiy fikrni bayon etish, bitta obrazni ko‘rsatishni ifodalovchi bir qismli shakl (masalan, F.Nazarovning “Paxtaoy” qo‘shig‘i);

b) turli obrazlarni solishtirish vositasi (to‘ldiruvchi va zidlovchi); “ish nima bila tugaganligini” bildiruvchi ikkinchi qismning ma’no ustunligi sifatida (masalan, B.Umidjonovning “Oqshomda” pesasi) oddiy ikki qismli shakl;

v) chetki qismlarning oddiy uch qismli shakli, ma’no ustunligi, birinchi qism obrazining uchinchi tasdiqlanishi (masalan, L.Betxovenning “Xursand, G‘amgin” pesasi);

g) kuplet shakli ko‘p martali shakl sifatida, bir qismli va ikki qismli musiqiy tuzilishning takrorlanishi; qo‘shiq repertuarini yod olish va ifodali ijro etish, xor jamoalari chiqishlari yozuvlarini eshitish jarayonida shaklning o‘zlashtirilishi;

d) rondo, refrenning ma’no yuklanmasi, rondodagi kontrast prinsipi; quyidagi asarlar misolida rondo shaklining ifodali imkoniyatlarini ochish;

e) variatsion shakl, variatsiyalash mavzuni o‘zgartirish uslubi sifatida: xarakter, janrni o‘zgartirish.

Shu tariqa musiqa bo‘lajak musiqa o‘qituvchilariga bolalar musiqiy qobiliyatlarini shakllantiruvchi, bolalar musiqiy asarlari va qo‘shiqlarini yaxshiroq tushunish uchun ko‘maklashadi, qat’iy mantiqiy aloqalar shakllanishi uchun sharoitlar yaratadi. Musiqiy asarlarni ijro etish bosqichlarida mantiqiy aloqalar bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ijodiy musiqiy qobiliyatlarini takomillashtiradi, bu esa musiqiy ijro jarayonida zamonaviy kompyuter vositalarini qo‘llash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Kudaykulov M.A. Didaktik muammolar: bo'lajak o'qituvchida kasbiy-metodik mahoratlar asoslar shakllanishi: pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. -Kiev, 1987. 49 b.
- 2.Piskunov A.I. pedagogika institutlari talabalarining umumpedagogik tayyorgarligini takomillashtirish №2.79-86b Moskva-1987 yil.
- 3.Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N.Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo'llanma. – T.TDPU Rizografi, 2014 yil. 6,5 b.t.
- 4.Nurmatov H.va boshqalar 1-3 sinf "Musiqqa" darsliklari. 2016.
- 5.Bekmatov S.6-sinf "Musiqqa" darsligi. 2017.
- 6.Ibrohimov O.7-sinf "Musiqqa" darsligi. 2016.
- 7.Yo'ldasheva S.X. O'zbekistonda musiqa tarbiyasi va ta'limining rivojlanishi. Darslik, Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 1985 yil.